

## ILMIY VA AMALIY HAMKORLIK RIVOJI

kishloq xoʻjaligi sohasida koʻplab istiqbolli loyihalarni hayotga tatbiq etishda yangi bosqichni boshlab beradi

Fargʻona va Xitoyning oʻzaro mustahkam rishtalar bilan bogʻlab turuvchi doʻstona aloqalar juda qadim tarixga ega. Bir paytlar Buyuk Ipak yoʻli boʻylab Dovon (hozirgi Fargʻona) va Chin (Xitoy) mamlakatlari oʻrtasida asrlar mobaynida davom etgan ikki tomonlama manfaatli aloqalar bugungi kunda zamonaviy mezonlar asosida takomillashib, rivojlanib bormoqda.

Shu yilning 16 avgust kuni Xitoy qishloq xoʻjaligi akademiyasi, qishloq xoʻjaligi sohasiga ixtisoslashgan institutlar, ilmiy markazlar rahbarlari, olimlaridan iborat bir guruh rasmiy delegatsiya aʼzolari viloyatimizga tashrif buyurishdi. Oʻzbekona udumga koʻra mehmonlar viloyatimizning chegara hududi Yozyovon tumanida kutib olindi. Shundan soʻng mehmonlar tashrif rejasiga muvofiq Quva tumanida joylashgan Paxta selektsiyasi, urugʻchiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Fargʻona ilmiy-tajriba stantsiyasiga yoʻl olishdi. Karnay-surnay sadolari ostida, non-tuz bilan kutib olingan mehmonlar yurtimiz bogʻlarida etishtirilgan shirindan-shakar mevalar, poliz mahsulotlaridan bahramand boʻlishdi hamda mehmonlarga milliylikimizni aks ettiruvchi sovgʻalar tuhfa etildi. Institut hovlisida bir piyola choy ustida samimiy suhbat uyushtirildi, milliy va mumtoz musiqa jozibasini barchani shodon davraga chorladi.

Fargʻona ilmiy-tajriba stantsiyasida boʻlib oʻtgan uchrashuvda qishloq xoʻjaligi sohasida ikki tomonlama oʻzaro manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ayniqsa, paxtachilik tarmogʻida ilmiy va amaliy hamkorlikni rivojlantirish borasida fikr-mulohaza yuritildi.

Bu yil viloyatimizda 95 ming gektar paxta maydonida 275 ming tonna sifatli hosil etishtirish rejalashtirilgan, dedi viloyat hokimi oʻrinbosari Ulugʻbek Nosirov. Aynan paxtachilik sohasiga ixtisoslashgan 4 mingta fermer xoʻjaliklari faoliyatida ilmiy va hayotiy tajribani oʻzaro uygʻunlashtirishda Fargʻona ilmiy-tajriba stantsiyasining juda katta xizmati bor. Viloyatimiz tabiiy-iqlim sharoitiga mos yangi navlar yaratish, joylashtirish, hosildorlikni oshirish, turli kasallik va zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashish kabi sohalarda doimiy hamkorlik yoʻliga qoʻyilgan.

2017 yilgi dehqonchilik yilida 245 gektar er mavjud boʻlgan Fargʻona ilmiy-tajriba stantsiyasining 70 gektarida tajriba tariqasida bir necha istiqbolli paxta navlari parvarishlandi. Qishloq xoʻjaligi sohasida koʻplab akademiklar, professorlar, fan doktorlari va nomzodlarini tarbiyalagan ushbu markazda hozirgi kunda 12 nafar ilmiy xodimlar samarali faoliyat koʻrsatmoqda. Dastlabki hisob-kitoblarga qaraganda, joriy dehqonchilik yilida har gektar erdan oʻrtacha 45 tsentnerdan sifatli hosil olish oʻzida tutilyapti.

Fargʻona ilmiy-tajriba stantsiyasi tasarrufidagi Quva birlamchi elita gʻoʻza urugʻchiligi laboratoriyasi dalalarida davom etgan yuzma-yuz muloqotda paxtachilik sohasidagi hayotiy, ilmiy tajribalar boʻyicha oʻzaro fikr almashildi.

Gʻoʻza parvarishi agrotexnologiyasi, biologik usullarni qoʻllash, ilmiy yondashuv singari sohalardagi tajribalarimiz bir-biriga juda yaqin, deydi Xitoy qishloq xoʻjaligi akademiyasi qoshidagi paxtachilikni oʻqitish instituti rahbari Li<sup>1</sup>F<sup>3</sup>gan. Oʻzbekona Qolaversa, tuproq unumdorligi, tabiiy-iqlim sharoiti borasidagi jihatlar ham bir-biriga juda oʻxshaydi. Bu esa hamkorlik istiqbolini taʼminlashda juda muhim ahamiyatga ega.

---

Bu tashrifdan koʻzlangan maqsad ham oʻzaro tajriba almashish, ilmiy-amaliy hamkorlikni rivojlantirish, yangi gʻoʻz, qoʻz, qoʻz navlari yaratishda yaqin hamkorlikni yoʻlga qoʻyishga qaratilgan.

Taʼkidlash joizki, istiqloq yillarida yurtimiz va xitoylik olimlar oʻrtasida bevosita qishloq xoʻjaligi sohasida ham samimiy hamkorlik izchil davom etmoqda. Fargʻona ilmiy-tajriba stantsiyasi katta ilmiy xodimi, qishloq xoʻjaligi fanlari doktori, professor Nazirjon Oʻrazmatov 1993, 1996 yillarda Xitoyda oʻzaro tajriba almashib kelgan. Professorning eʼtirof etishicha, "Andijon-60" navi aynan Xitoy tajribasi asosida chatishtirilgan. Qadrdonlar bu galgi muloqot chogʻida ilmiy hamkorlik koʻlamini bugungi kun talabi asosida rivojlantirish borasida bir-birlarini qoʻllab-quvvatlashdi. Mamlakatimiz qishloq xoʻjaligi sohasining eng koʻzga koʻringan olimlari, qishloq xoʻjaligi fanlari doktorlari Shuhrat Teshayev, Shodmon Namozovlar ishtirokida boʻlib oʻtgan amaliy mashgʻulotlar juda ham maroqli oʻtdi.

Mustaqillik yillarida Fargʻona ilmiy-tajriba stantsiyasi olimlari tomonidan "Boʻston", "Al Fargʻoniy", "Qubbo", "OʻzPiti-2201", "OʻzPiti-2202", "Beshariq-96" singari bir qator yangi gʻoʻz, qoʻz navlari yaratilib, amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etilgan.

Shu yilning 22-23 iyun kunlari viloyatimizga tashrifi chogʻida muhtaram Prezidentimiz yangi istiqbolli navlar yaratish, qishloq xoʻjaligi sohasida ilmiy yondashuvni kuchaytirish borasida zimmamizga muhim vazifalar topshirdi, deydi selektsioner olim Maxsutali Hojimatov. "Hozirgi kunda viloyatimiz iqlim sharoitiga mos boʻlgan bir necha navlarni takomillashtirish, ham fermer, ham sanoat tarmogʻi uchun sifatli tola beruvchi, jahon andozalariga javob beradigan, suvga chidamli, tejamkor, serhosil navlar ustida ilmiy izlanishlar olib borilyapti. Oʻzimiz "Boʻston", "Al Fargʻoniy", "OʻzPiti-2201" navlarining asosiy muallifimam. Ayni paytda viloyatimiz iqlim sharoiti uchun eng maqbul hisoblanuvchi "OʻzPiti-2201" gʻoʻz, qoʻz navlari har jihatdan takomillashtirish maqsadida ilmiy va amaliy tajribani oʻzaro uygʻunlashtirgan holda ish olib boryapman. Bugun xitoylik olimlar bilan gʻoʻz, qoʻz navlari yaratishda selektsiyasi faoliyatiga zamonaviy mezonlar asosida yondoshish boʻyicha hamkorlik kelishuvlariga erishildi.

Shuningdek, bevosita dalaning oʻzida boʻlib oʻtgan suhbatlarda Fargʻona ilmiy-tajriba stantsiyasi olimlari tomonidan olib borilayotgan saʼy-harakatlar, ilmiy izlanishlar va salohiyat, yangi gʻoʻz, qoʻz navlari yaratish va takomillashtirish sohalarini boʻyicha taqdimot marosimlari oʻtkazildi. Choʻl hududlarda hosildorlikni oshirish, shoʻrlanganlik darajasini pasaytirish, erlarning meliorativ holatini yaxshilash yuzasidan oʻzaro fikr almashildi. Muhtaram Prezidentimiz tavsiyasi asosida Markaziy Fargʻona hududidagi hosildorligi past erlarga boshqa ekinlarni joylashtirish boʻyicha olimlarimiz tomonidan ilmiy asoslangan reja ishlab chiqilgani taʼkidlandi.

Viloyatimizga amalga oshirilgan bir kunlik tashrif doirasida xitoylik mehmonlar istiqloq yillarida Margʻilon va Fargʻona shaharlari, Quva tumanida amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishib, xalqimizning yaratuvchanlik va bunyodkorlik salohiyatiga yuqori baho berishdi.

---

Xitoy rasmiy delegatsiyasini viloyat hokimi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi<sup>2/3</sup> Senati aʼzosi Shuhrat Gʻaniev qabul qildi va samimiy muloqot chogʻida ikki tomonlama manfaatli hamkorlik koʻlami yanada kengayishiga ishonch bildirildi.

